



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruv
akademiyasiga professor-o‘qituvchilarni ochiq tanlov asosida ishga qabul qilish
tartibi to‘g‘risida NIZOMdan
K O‘CH I R M A**

2-bob. Ochiq tanlovni o‘tkazish tartibi

13. Ochiq tanlov jarayoni videotasvirga olinadi, ammo ushbu tasvirlar faqat apellyatsiya yoki sud jarayonlarida dalil sifatida foydalanilishi mumkin. Ochiq tanlovdan o‘tuvchilar videotasvirga olish to‘g‘risida oldindan xabardor qilinadi.

14. Ochiq tanlov quyidagi bosqichlarda o‘tkaziladi:

14.1. E‘lon berish va nomzodlarning hujjatlarini qabul qilish.

14.2. Ishchi organ tomonidan hujjatlarni tahlil qilish va saralash (skringing).

14.2.1. Hujjatlarning to‘g‘riligi va to‘liqligi (15-bandga asosan);

14.2.2. Topshirilgan hujjatlar qo‘yilgan talablarga muvofiqligi;

14.2.3. Saralash natijalari haqida nomzodlarni xabardor qilish.

14.3. Suhbat (ochiq dars, intervyu) o‘tkazish jarayoni.

14.3.1. Nomzodlar tomonidan o‘quv mashg‘uloti namunalarini taqdim etish;

14.3.2. “Ochiq dars” mashg‘uloti hamda savol-javobni o‘z ichiga olgan 10-15 daqiqalik yakka tartibdagi suhbatni baholash;

14.3.3. Nomzodlarning ilmiy, ilmiy-pedagogik faoliyatini baholash;

14.3.4. Suhbat (ochiq dars, intervyu) natijalari bo‘yicha individual bayonnomalar tuzish.

3-bob. Ochiq tanlovda ishtirok etish shartlari

15. Nomzodlar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

Professor lavozimini egallash uchun tanlovda, qoidaga ko‘ra, professor ilmiy unvoniga va/yoki ilmiy darajaga ega, fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoki falsafa doktori (PhD) yoki xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo‘lishi;

Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda, qoidaga ko‘ra, dotsent ilmiy unvoniga, fan doktori (Doctor of Science) yoki falsafa doktori (PhD), yoki xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo‘lishi;

Katta o'qituvchi lavozimini egallash uchun tanlovda oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxs (kamida magistr diplomli mutaxassis), shuningdek ilmiy daraja va/yoki ilmiy unvonga ega bo'lgan hamda bunday daraja va unvonga ega bo'lmagan, biroq o'qituvchilik, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish ishlari tajribasiga ega bo'lishi;

O'qituvchi lavozimini egallash uchun nomzod tegishli mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotga ega, ya'ni magistr darajasini tasdiqlovchi diplomga ega mutaxassis bo'lishi shart, shuningdek u oliy ta'lim muassasalarida yoki tegishli sohada kamida uch yil mehnat (kasbiy) faoliyati tajribasiga ega bo'lishi lozim.

Mazkur malakaviy talablar amaldagi mehnat va ta'lim to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilanadi hamda tanlov jarayonida majburiy tartibda baholanadi.

Barcha nomzodlar davlat tilini bilishi, ilmiy va amaliy faoliyatda tegishli tajribaga ega bo'lishi, ilmiy maqolalar va o'quv qo'llanmalar muallifi bo'lishi, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini mukammal o'zlashtirgan, interaktiv usullar orqali dars olib borish, shuningdek, masofaviy/online ta'lim platformalaridan samarali foydalangan holda auditoriya bilan professional muloqot olib borish va kamera qarshisida dars o'tish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Nomzodlarning xorijiy tillarda erkin muloqot qilishi, xorijiy davlatlar fuqarolarining o'zbek tilini bilishi, shuningdek, andragogik metodlardan samarali foydalanishi va masofaviy/online ta'lim formatida dars olib borish ko'nikmalariga ega bo'lishi ularga ochiq tanlovda ustuvorlik beradi.

16. Ochiq tanlovda qatnashish uchun nomzodlar quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

Akademiya rektori nomiga ariza (belgilangan namunada);

pasport yoki ID-shaxs guvohnomasi nusxasi;

diplomlar va ilovalar nusxalari;

ilmiy ishlar ro'yxati (Doi, ISSN, ISBN);

rezyume-ma'lumotnoma.

4-bob. Ochiq tanlovda nomzodlarni baholash va mehnat shartnomasi tuzish

17. Ochiq tanlov 100 ballik tizimda baholanadi. Har bir nomzodning ballari yakka tartibdagi suhbat (intervyu)dan so'ng umumiy ball sifatida qayd etiladi.

18. Komissiya nomzodlarni quyidagi mezonlar asosida baholaydi:

taqdim etilgan o'quv mashg'uloti namunalarining sifati, ularning yangiligi, interaktiv usullardan foydalanish qobiliyati – 20 ball;

yakka tartibda suhbat (intervyu) nomzodlarni davlat siyosatini tushunish va tahlil qilish, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi bilimlarini aniqlash - 20 ball;

andragogik tajriba va natijalar – 15 ball;

masofaviy/online ta'lim platformalaridan samarali foydalanish hamda kamera qarshisida dars olib borish ko'nikmalari – 10 ball;

chet tillarini bilish darajasi – 10 ball; ilmiy salohiyat (maqolalar, o'quv qo'llanmalar, tadqiqotlar) – 10 ball;

akademik mobillik, xalqaro hamkorlik tajribasi – 5 ball;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash ko'nikmalari – 5 ball;

akademik odob-axloq va muomala madaniyati - 5 ball.

19. Ochiq tanlov natijasi quyidagi darajalarga ko'ra baholanadi:

81-100 ball - lavozimga loyiq;

61-80 ball - lavozimga shartli ravishda loyiq;

60 ball va undan past - lavozimga noloyiq.

20. Komissiya tomonidan ochiq tanlovda ishtirok etuvchi nomzodlarning so'nggi yillardagi mehnat faoliyati davomida amalga oshirgan ishlari, soha bo'yicha bilimi, ilmiy-siyosiy yetukligi va xorijiy tilni bilish ko'nikmasi bo'yicha savollarga berilgan javoblariga asosan, har bir nomzodga nisbatan alohida qaror qabul qilinadi.

21. Ochiq tanlov natijasi bo'yicha komissiya quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

nomzod lavozimga loyiq;

nomzod lavozimga shartli ravishda loyiq;

nomzod lavozimga noloyiq.

22. Nomzod lavozimga shartli ravishda loyiq deb topilgan taqdirda, uch oy muddat o'tgach keyingi oying birinchi o'n kunligida ishchi organ tomonidan maktablar dekanlarining xulosalari Komissiyaga taqdim etiladi. Komissiya taqdim etilgan xulosalarni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra nomzodning egallab turgan **lavozimga loyiq** yoki **noloyiq** ekanligini aniqlaydi hamda tegishli qaror qabul qiladi.

23. Ochiq tanlov yakunlari bo'yicha Komissiya tomonidan qabul qilingan qaror Komissiya raisi, a'zolari hamda kotibi tomonidan imzolangan ochiq tanlov bayonnomasida rasmiylashtiriladi.

24. Ochiq tanlov natijalariga ko'ra eng munosib deb topilgan nomzodlar ro'yxati Komissiya kotibi tomonidan Akademiya rektoriga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

25. Ochiq tanlov natijalari tanlov jarayoni rasmiy ravishda yakunlanganidan so'ng Komissiya tomonidan tegishli yig'ilish bayonnomasi rasmiylashtirilib tasdiqlangach, besh ish kuni ichida Akademiyaning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi hamda barcha nomzodlarga natijalar bilan tanishish imkoniyati yaratiladi.

5-bob. Apellyatsiya shikoyatini berish va ko'rib chiqish tartibi

26. Apellyatsiya komissiyasi Akademiya rektorining buyrug'iga asosan tuziladi hamda uning tarkibiga Ochiq tanlov komissiyasi tarkibiga kiritilmagan prorektorlar va Akademiya tarkibiy bo'linmalari vakillari kiritiladi. Zaruratga ko'ra, Apellyatsiya komissiyasiga mustaqil ekspertlar, psixologlar va boshqalar ham jalb etilishi mumkin.

27. Ochiq tanlov natijalari bo'yicha nomzodlarning shikoyatlari, ular e'lon qilingan sanadan boshlab bir ish kunida Akademiyaga yozma shaklda taqdim etilishi mumkin.

28. Apellyatsiya komissiyasi tomonidan faqat suhbat jarayonining belgilangan tartibda amalga oshirilgan video yozuvlari ko'rib chiqiladi. Komissiya suhbatjarayonini

qayta tahlil qilish orqali nomzodning bilim, ko'nikma va kompetensiyalari xolislik, shaffoflik hamda adolatlilik tamoyillari asosida baholanganligini o'rganadi.

29. Apellyatsiya komissiyasi shikoyatni shikoyat berilgan kundan boshlab besh ish kuni ichida ko'rib chiqadi va qaror qabul qilingan kuni nomzodni shikoyat qanoatlantirilgan yoki rad etilganligini ko'rsatgan holda, yozma ravishda xabardor qiladi.

30. Nomzod apellyatsiya shikoyatini ko'rib chiqishda ishtirok etish huquqiga ega.

6-bob. Yakuniy qoidalar

31. Ushbu Nizomni qo'llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

32. Mazkur Nizomning talablarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

33. Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar Vasiylik Kengashi qarori asosida amalga oshiriladi.

Asliga to'g'ri



N. Mamadjonova